

RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISHNING FONETIK ASPEKTI

Omina Abdusattarova Abdumuxtor qizi

Yangi asr universiteti, rus tili o'qituvchisi

Abdusattarovaaminakhan@gmail.com

Annotatsiya: Xorijiy tillarni o'qitishda fonetik aspekt doimo muhkamali bo'lib qolgan, xususan, rus tilini xorijiy til sifatida o'qitish bo'yicha ham ushbu masala o'rinli. Fonetik jarayonlar rus tilini chet tili sifatida o'rganishda kommunikativ kompetensiyaning muvaffaqiyatli shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada turli tadqiqotlar natijasida shakllanib kelgan onlayn kurslarning nazariy asoslari muhokama qilinadi va fonetik kompetensiyaning darajalararo o'sish uchun ahamiyatini yoritib beradi. Shuningdek, rus tilini o'qitishda fonetik aspektning yuqori darajadagi ta'limda ham tizimli bir qismi bo'lishi zarurligi borasida asosli fikrlar beriladi.

Kalit so'zlar: Intonatsiya, intonatsion markaz, fonema, gap sintagmasi, urg'u, E.A. Brizgunova konsepsiyasi, leksik-grammatik minimum

Abstract: The phonetic aspect in foreign language teaching has long remained a subject of active discussion, particularly in the context of teaching Russian as a foreign language. Phonetic processes significantly influence the successful formation of communicative competence in learning Russian as a foreign language. This article discusses the theoretical foundations of online courses developed on the basis of various research findings and highlights the importance of phonetic competence for progression between proficiency levels. It also provides well-grounded arguments that the phonetic aspect should remain a systematic component of teaching Russian even at advanced stages of education.

Key words: Intonation, intonation center, phoneme, sentence syntagm, stress (word stress), E.A. Bryzgunova's concept, lexical-grammatical minimum.

Kirish

Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, ularning so'zlarda boshqa tovushlar bilan qanday birikishini va gap tarkibida ularning bog'lanishini bilish til o'rganuvchining og'zaki nutqini, tinglab tushunish qobiliyatini, o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish uchun zarur hisoblanadi.

Albatta, tabiiy til muhitida bu jarayonlar bir vaqtning o'zida sodir bo'lib, buni yosh bolalarning gapirishni boshlashi, qanchalik osonlik bilan vaqt sayin davom etishini tasavvur qilish orqali tasvirlaydi [11]. Biroq til muhiti tabiiy holatda mavjud bo'lmagan sharoitlarda, ya'ni xorijiy til sifatida o'rganish jarayonida talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ammo ba'zi bir qarashlarga ko'ra talaffuz ko'nikmalari muhim emasligi ham ta'kidlanadi. Zero, ularning talqinicha xorijiy tilni o'rganishda o'z ona tilisida gapirilgandek aksentsiz gapirishning iloji yo'q va birinchi til ta'siri sezilib turadi. Ushbu maqolada biz aynan mazkur bahsli mavzu yuzasidan talaffuz ko'nikmasining ahamiyati borasida so'z yuritamiz.

M. I. Matusevich fonetik ko'nikmalar to'g'ri talaffuz me'yorlarini nazarda tutishini ta'kidlarkan, tovush va tovush ko'nikmalarini to'g'ri artikulyatsiya qilish va intonatsiya rioya qilish, til me'yorlariga mos urg'u qo'yish kabi malakalarni ham o'z

ichida jamlaydi [8]. Shu o'rinda ta'kidlash zarurki, talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy qiyinchilik tillararo interferensiya hisoblanadi. Ya'ni chet tilini o'rganishdan oldin o'quvchilarda o'z ona tilisining tovush va talaffuz me'yorlari bo'yicha mustahkam bilim mavjud hisoblanadi va ular chet tilidagi talaffuzni o'z ona tillaridagi tovushlarga o'xshatib artikulyatsiya qilishni boshlashadi. Tabiiyki, o'qituvchilar uchun bu holat oldindan taxmin qilinadi va oldini olish zarur hisoblanadi. Buning uchun esa o'rganilayotgan tilning artikulyatsion bazasiga yetarlicha e'tibor qaratish zarur hisoblanadi. Shu boisdan, darsliklarda talaffuz ko'nikmalari bosqichma-bosqich va izchillikda olib boriladi. Tinglash va talaffuz ko'nikmalarining o'zaro aloqasi esa bu ko'nikmaning boshqa muloqot turlari bilan aloqada kechishini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda kirish-fonetik onlayn kurslari rus tilini o'qitishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. A. L. Arxangelskaya tomonidan aynan ushbu kurslarning tuzilishi hamda tashkil etilish tamoyillari tadqiq qilingan [1]. Ushbu kurslar Rossiya xalqlar do'stligi universitetida xorijiy o'quvchilarga rus tilini o'qitish uchun boshlang'ich darajani o'qitishda amaliy qo'llanmoqda. Shuningdek, E. G. Doronina hamda Yu. V. Kazakovaning maqolalarida ham rus tilini chet tili sifatida o'qitishga mo'ljallangan hamda fonetik malakani oshirish uchun yo'naltirilgan elektron kurslarning sharhlari berilgan. Shu bilan birga, ularning tadqiqotlarida tillar o'rtasidagi interferensiya hodisasini hisobga olish zarurligi ta'kidlangan [6]. Shu sababli ham, xulosa qilishimiz mumkinki, xorijiy tillarni o'rganishda o'quvchilarning ona tillarini tadqiq qilish masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

N. L. Fedotova va A. Yu. Kasatkina tomonidan ham ushbu yo'nalishda olib borilgan izlanishlari fonetikaga oid masalalarga bag'ishlanib, ular fonetik o'yinlardan foydalanishni taklif qilishadi. Ular tomonidan mualliflik asosida kirish-fonetik o'yinlar kursini ishlab chiqqan. Ularning izlanishlari asosan Xitoy tilida so'zlashuvchi o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, Xiyotliklar madaniyatiga xos xususiyatlar o'yinlarni tashkil qilishda hisobga olingan [9]. Xorijiy tilni o'qitishda barcha bosqichlarda fonetik ko'nikmalarni tizimli rivojlantirish zarurligi I. M. Loginova tomonidan ham alohida ta'kidlangan [7].

ASOSIY QISM

Xorijiy tilning nutq faoliyatini o'rganishda fonetik samaradorlik fonetikadan tashqari tilning grammatika, leksika va boshqa faoliyat turlarini ham hisobga olishni taqozo qiladi. Ushbu yo'nalish ayniqsa, ko'p aspektli o'qitish sharoitida yoki kelajakda o'qituvchi bo'lishni rejalashtirgan filologlarni tayyorlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida fonetik ko'nikmalarning rivojlanganlik darajasi B1 darajasidan B2 darajasiga o'tish bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, talaffuz va intonatsiya ustida ishlash bir pog'ona darajaga ko'tarilish uchun zarurligi I. Yu. Varlamova, M. B. Budiltseva va I. A. Pugachevlarning intonatsiya va talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishga bag'ishlangan maqolalarida ham ta'kidlangan [5]. Ular tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, aynan tillararo interferensiya bilan bog'liq xatolar ko'p uchraganligi aniqlangan. Natijada esa bu tadqiqot rus tilini fonetikasining qiyinchiliklarini bartaraf etishga qaratilgan leksik-grammatik minimum tuzish uchun asoso vazifasini bajardi. Shu bilan birga bu minimumda lingvistik yo'naltirilgan metodikadan foydalanish Varlamova tomonidan tavsiya etilgan.

Rus tilini o'qitishda fonetik ko'nikmaning yaxshi shakllanishi intonatsiyaga alohida ahamiyat berish zarurligini taqozo etadi. Shu o'rinda gaplarni sintagmatik

qismlarga ajratish va har bir qismning intonatsiya markazini ajrata olish kabi ko'nikmalari shakllantirilishi zarur. Bu ko'nikmalar nafaqat to'g'ri nutqning shakllanishiga, qolaversa, mazmunli o'qish malakasini shakllantirish, muhim axborotni ajratish hamda tushuntirish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Buning ilmiy tadqiqi sifatida M. N. Shutova tomonidan olib borilgan matnning intonatsiyasiga bag'ishlangan maqolani keltirish mumkin [12].

Ko'pgina hollarda boshlang'ich fonetika kursi tugallangach, noto'g'ri talaffuz yoki intonatsiya bo'yicha o'rganish e'tiborsiz qoldiriladi. Shuning uchun ham yuqorida aynan fonetik bilimlar izchil tarzda yuqori bosqichlarda ham davom ettirilishi zarur. Zero, noto'g'ri talaffuz hamda intonatsiya, aksentning sezilib turishi muloqot jarayonida suhbatdoshlarda salbiy tassurot uyg'otish hamda noqulaylik tug'dirishi mumkin. Bular orasida ayniqsa, aksentni minimallashtirish eng qiyin vazifalardan biri hisoblanadi.

Aksentni kamaytirish hamda intonatsiya masalalari V. V. Bondareva, E. L. Barkhudarova, S. S. Xromov kabi tilshunoslar tomonidan o'rganilgan bo'lib, tovush birliklarining pragmatik va sintagmatik xususiyatlarini aniqlashda muhim hisoblanadi [10]. E. A. Brizgunovaning filologik nazaryasi asosida to'rtta asosiy konsepsiya ishlab chiqilgan bo'lib, nutqni kommunikativ kompleks sifatida tadqiq qilishga yordam beradi [4]:



Ushbu konsepsiyada intonatsiyaning o'zi ichki to'rt guruhga bo'linadi:

- Intonatsiya konstruksiyasi turi;
- Sintagmada intonatsiya markazining joylashuvi;
- Sintagmatik bo'linish va uning o'rni;
- Sintagma ichidagi pauza.

Ushbu konsepsiya orqali talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishda tarkibiy qismlarni aniq va tizimli holda shakllantirish mumkin. Fonetik aspekt aynan bosqichma-bosqich o'qitilishida ushbu konsepsiya va uning tarkibiy qismlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Talaffuzni shakllantirish uchun muvaffaqiyatli o'quv materialini tanlash uni samarali taqsimlash hamda o'rganuvchilarning ona tilisini ham hisobga olish bilan birgalikda tatbiq qilishni taqozo etadi. Xususan, qattiq-yumshoq undoshlar, jarangli-jarangsiz undoshlar, qattiq-yumshoq undoshlardan keyin keladigan reduksiyalangan unli tovushlar, so'zning ritmik tuzilishi va gap intonatsiyaning shakllanishi kabi bosqichlar shular jumlasidandir.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, zamonaviy ta'limni eksperimental fonetik natijalarg atayanmagan holda samaradorligini oshirish mumkin emas. O'qituvchilar hamda

metodistlar akustik fonetika izlanishlari taqdim etayotgan yangi ilmiy natijalarni hisobga olishlari zarur.

Chet tilida muvaffaqiyatli muloqot talaffuz ko'nikmalarinig har tomonlama shakllanganligi bilan bog'liq. Ayniqsa, bir-biridan uzoq, qarindosh bo'lmagan tillarda esa yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham so'nggi yillarda, metodist va lingvistlar tomonidan xorijiy til talaffuzi va intonatsiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, rus tilini chet tili sifatida o'qitishda ham fonetik aspekt muhim ahamiyat kasb etmoqda va elektron kurslarda o'z aksini topmoqda. Shu sababli ham o'rta va yuqori bosqichlarda ham rus tilining fonetik sathini o'rganishda davom etish taklif qilinadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Архангельская, А. Л. (2017). Вводно-фонетический курс в системе смешанного обучения РКИ. В *Довузовский этап обучения в России и мире: язык, адаптация, социум, специальность* (Сб. ст. I Междунар. конгресса преподавателей и руководителей подготовительных факультетов, в 2 ч., ч. 1, сс. 36–39). Москва: РУДН.
2. Бархударова, Е. Л. (2017). Фонетический акцент как показатель характеристик звукового строя родного и изучаемого языков. *Русский язык за рубежом*, (3), 10–15.
3. Бондарева, В. В. (2017). К вопросу о языковых контактах: фонетическая интерференция и акцент. В *Довузовский этап обучения в России и мире: язык, адаптация, социум, специальность* (Сб. ст. I Междунар. конгресса преподавателей и руководителей подготовительных факультетов, в 2 ч., ч. 1, сс. 88–92). Москва: РУДН.
4. Брызгунова, Е. А. (1963). *Практическая фонетика и интонация русского языка*. Москва: Издательство МГУ.
5. Варламова, И. Ю., Будильцева, М. Б., & Пугачев, И. А. (2017). Преемственность в формировании навыков произношения и интонирования на среднем этапе обучения РКИ и в курсе «Русский язык и культура речи». В *Довузовский этап обучения в России и мире: язык, адаптация, социум, специальность* (Сб. ст. I Междунар. конгресса преподавателей и руководителей подготовительных факультетов, в 2 ч., ч. 1, сс. 124–129). Москва: РУДН.
6. Доронина, Е. Г., & Казакова, Ю. В. (2017). Проблемы создания национально ориентированных электронных курсов по фонетике. В *Довузовский этап обучения в России и мире: язык, адаптация, социум, специальность* (Сб. ст. I Междунар. конгресса преподавателей и руководителей подготовительных факультетов, в 2 ч., ч. 1, сс. 271–275). Москва: РУДН.
7. Логинова, И. М. (2015). Фонетический аспект обучения на кафедре русского языка и методики его преподавания РУДН. *Вестник РУДН. Серия: Русский и иностранные языки и методика их преподавания*, (2), 16–22.
8. Матусевич, М. И. (1976). *Современный русский язык. Фонетика*. Москва: Просвещение.
9. Федотова, Н. Л., & Касаткина, А. Ю. (2017). Система фонетических игр для обучения китайских учащихся русскому произношению на начальном этапе. В *Довузовский этап обучения в России и мире: язык, адаптация, социум, специальность* (Сб. ст. I Междунар. конгресса преподавателей и

- руководителей подготовительных факультетов, в 2 ч., ч. 2, сс. 324–328). Москва: РУДН.
10. Хромов, С. С. (2017). Сопоставительное изучение и описание интонации русского языка: лингвистический и методический аспекты. *Русский язык за рубежом*, (3), 34–38.
 11. Шутова, М. Н. (2017). Интонационный анализ текста на начальном этапе обучения иностранных филологов-русистов. В *Довузовский этап обучения в России и мире: язык, адаптация, социум, специальность* (Сб. ст. I Междунар. конгресса преподавателей и руководителей подготовительных факультетов, в 2 ч., ч. 2, сс. 399–401). Москва: РУДН.
 12. Шутова, М. Н., & Орехова, И. А. (2018). Фонетический аспект в методике преподавания русского языка как иностранного. *Русистика*, 16(3), 261–278. <https://doi.org/10.22363/2618-8163-2018-16-3-261-278>